

TA’LIM MUASSASALARIDA ENERGIYA TEJASHNI TA’MINLASHNING CHORA-TADBIRLARI TAXLILI

Dildoraxon Abduraxmonova

Magistratura talabasi, Farg‘ona Politexnika Instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Abdullajon Xomidov

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), o‘qituvchi, Farg‘ona
Politexnika Instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

Ziyodbek Yunusov

Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Farg‘ona Politexnika
Instituti, Farg‘ona, O‘zbekiston

E-mail: z.yunusov@ferpi.uz

Annotatsiya

Maqolada ta’lim muassasalarida energiya tejashni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan chora-tadbirlarning taxlili keltirilgan. Energiya resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi, ayniqsa ta’lim muassasalari kabi jamoat binolarida. Tadqiqot davomida energiya tejashning iqtisodiy, texnologik va ekologik jihatlari ko‘rib chiqilgan. Binolarning issiqlik izolyatsiyasi, energiya samarador qurilmalar, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar o‘rganilgan. Shuningdek, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida kutilayotgan iqtisodiy tejam va ekologik samaralar ko‘rsatib o‘tilgan. Maqolada ta’lim muassasalarida energiya tejash bo‘yicha strategik yondashuvlarni shakllantirishga qaratilgan tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: energiyani tejash, qayta tiklanadigan energiya, uglerod chiqindilari, led yoritish tizimi, issiqlik izolyatsiyasi, quyosh panellari, shamol energiyasi, energiya samaradorligi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi, ekologik barqarorlik.

Kirish

Energiya resurslarini tejash bugungi kundagi eng muhim global muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yab energiya iste'moli yildan-yilga ortib bormoqda va bu jarayon iqlim o'zgarishiga hamda tabiatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [1]. Ta'lim muassasalari energiya iste'molining sezilarli qismini tashkil qiladi, chunki ularda mavjud bo'lgan bino va inshootlar yil davomida faol ishlataladi. Ushbu muassasalarda energiya tejash bo'yicha samarali strategiyalarni joriy etish iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlash va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ta'lim muassasalarida energiya tejash masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, 2024-yil 27-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev energiya tejamkorligini ta'minlash va muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan yig'ilish o'tkazdi. Ushbu yig'ilishda ta'lim muassasalarida energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi [2].

Farg'ona politexnika instituti ushbu yo'nalishda faoliyat olib borib, energiya samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda. Institut olimlari tomonidan Farg'ona tumanidagi elektr iste'moli tahlil qilinib, elektr energiyasining yo'qotilishini kamaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, LED texnologiyalari asosida yoritish tizimlarini yangilash va issiqlik izolyatsiyasi materiallarini qo'llash bo'yicha tajriba loyihalari amalga oshirilmoqda.

Farg'ona Politexnika Instituti energiya boshqaruviga katta e'tibor qaratib, zamonaviy barqaror texnologiyalarni joriy qilish orqali energiyani tejashga erishmoqda. Institut tomonidan energiya sarfini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Asosiy chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

- Quyosh panellarini o'rnatish: Institut binolarining tomlariga quyosh panellari o'rnatilib, quyosh energiyasidan samarali foydalanimoqda.
- Termostatli isitish tizimlari: Isitish tizimlariga termostatli boshqaruvarlar joriy etilib, energiya iste'moli optimallashtirilmoqda.

• To‘liq LED yoritish tizimlari: Barcha binolarda energiya tejamkor LED lampalar o‘rnatilib, ularga harakat datchiklari qo‘shilgan. Bu esa energiyaning keraksiz sarfini kamaytirishga yordam bermoqda.

• Quyosh kollektorlaridan foydalanish: Issiq suv ta’minoti va boshqa ehtiyojlar uchun quyosh kollektorlaridan foydalanilib, an’anaviy energiya manbalariga bog‘liqlik kamaytirilmoqda.

• Shamol generatorlarini o‘rnatish: Shamol energiyasidan foydalanish uchun shamol generatorlarini o‘rnatish ishlari amalga oshirilmoqda.

• Qayta tiklanadigan energiya manbalarini keng qo‘llash: Institut qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va energiyani tejash imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirmoqda.

Ushbu tashabbuslar Farg‘ona Politexnika Institutining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishga, energiya samaradorligini oshirishga va barqaror rivojlanish maqsadlariga xizmat qilishga bo‘lgan qat’iy intilishini namoyon etadi. Ushbu yondashuv nafaqat energiya tejashda, balki ta’lim muassasalarida ekologik mas’uliyatni oshirishda ham namuna bo‘lib xizmat qiladi. Farg‘ona Politexnika Instituti energiya samaradorligini oshirish maqsadida muhim qadamlar tashlamoqda. Institutning ma’muriyat binosi, kutubxona, laboratoriya binosi, talabalar turar joylari, omborxonalar va boshqa o‘quv binolari tomiga jami quvvati 820 kWt/soatga teng bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatilgan. Ushbu tizim institutning energiya ta’minotida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, joriy yildan boshlab shamol generatorlarini sinov tariqasida qo‘llash boshlangan. Hozirda quvvati 5,0 kWt bo‘lgan shamol generatori o‘rnatilgan va foydalanilmoqda. Kelgusida bu kabi energiya manbalarining ulushini yanada oshirish rejalashtirilmoqda. Bu esa institutning umumiy energiya sarfida qayta tiklanadigan energiya manbalarining salmog‘ini ko‘paytirishga va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.



Research Science and
Innovation House

“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN” JURNALI

VOLUME 2, ISSUE 11, 2024. NOVEMBER

ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House




1-rasm. Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish

Ushbu yondashuv institutning energiya tejamkorligini oshirish bo‘yicha uzoq muddatli strategiyasining ajralmas qismi bo‘lib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Xalqaro tajribalar ham ta’lim muassasalarida energiya tejashta katta e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatmoqda. Masalan, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida maktab va universitetlarda issiqlik izolyatsiyasi, avtomatlashtirilgan yoritish tizimlari hamda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish natijasida energiya iste’molini 30-40% gacha kamaytirishga erishilgan [3].

Mazkur maqolada Farg‘ona politexnika instituti misolida ta’lim muassasalarida energiya tejashti ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Shuningdek, energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlarning natijalari va ularni keng joriy etish uchun taklif etilayotgan strategiyalar ko‘rib chiqiladi. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston sharoitida energiya tejas dasturlarini takomillashtirishga asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.



2-rasm. Yillik elektr energiyasi iste'moli (KVt soatda) (FarPI)

2023-yilda Farg'ona Politexnika Institutining kampusida jami elektr energiya iste'moli 1 518 273 KVt/soatni tashkil etdi. Elektr yoritish,sovutish, isitish tizimlari, laboratoriya uskunalarini hamda sug'orish tizimi uskunalarini asosiy iste'molchilardan biri sifatida ajralib turadi.

So'nggi yillarda talabalar uchun yangi o'quv binolari va turar joylar qurilishi energetika talabining oshishini ko'rsatmoqda. Yangi binolar qurilishi nafaqat ta'lim muassasasining infratuzilmasini kengaytirishga, balki talabalarni joylashtirish qulayliklarini oshirishga ham xizmat qiladi. Ushbu holat elektr energiyasiga bo'lgan talabning kelgusida yanada oshishini anglatadi.

Institut tomonidan elektr energiya iste'molini optimallashtirish uchun zamonaviy barqaror texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushu talabni qondirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv nafaqat energiya samaradorligini oshirishga, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga ham xizmat qiladi.

Farg'ona Politexnika Institutining Energiya Tejamkorligi va Barqarorlikka Yo'naltirilgan Chora-Tadbirlari

Farg'ona Politexnika Institut 2023-yilda energiya samaradorligini oshirish, arzon va toza energiyaga o'tish hamda uglerod chiqindilarini kamaytirish bo'yicha

bir qator muhim chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Ushbu tashabbuslar qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, energiyani tejash texnologiyalarini joriy qilish va ekologik barqarorlikka erishishga qaratilgan.

Yangi binolar qurilishida energiya samaradorligi va ekologik me'yordarga mos materiallardan foydalanildi. Binolarning tom qismiga quyosh panellari o'rnatildi, yoritish tizimlari LED texnologiyalari bilan jihozlandi va yuqori darajadagi issiqlik izolyatsiyasi ishlatalishi orqali qishda issiqlik yo'qotilishi 40% gacha kamaytirildi. Bino loyihalashtirishda muhandislik yutuqlaridan foydalanilib, tabiiy yorug'likdan samarali foydalanish va energiya tejaydigan oynalar o'rnatishga e'tibor qaratildi.

Eski binolarni rekonstruksiya qilish jarayonida ularning issiqlik izolyatsiyasi yaxshilandi, ko'p qatlamlı oynalar va energiya samarador eshiklar o'rnatildi. LED texnologiyalari asosidagi yoritish tizimlari bilan jihozlash, ventilyatsiya tizimlarini avtomatlashtirilgan boshqaruvga moslashtirish binolarda energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirdi.

LED yoritish tizimiga to'liq o'tish o'quv va ma'muriy binolarda energiya iste'molini 20% ga qisqartirdi. Isitish va sovitish tizimlari zamonaviy energiya samarador texnologiyalar bilan yangilandi, bu energiya sarfini yana 25% ga qisqartirish imkonini berdi.

Institut olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Climat Control" pardalari va quyosh energiyasidan foydalanishga mo'ljallangan sovitish tizimlari yangi qurilishlarda keng qo'llanmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida elektr energiya ta'minotidagi uzilishlarni kamaytirish, yoqilg'i zaxiralarini tejash va ekologik zararlarni kamaytirish maqsadlariga erishilmoxda.

Institut hududida jami 822 kVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilib, umumiy elektr energiya ehtiyojlarining 25% ni qayta tiklanadigan energiya manbali orqali qondirishga erishildi. Shamol turbinalaridan foydalanish bo'yicha eksperimental loyihalar amalga oshirilmoqda, bu energiya manbalari ulushini kelgusida kengaytirishga zamin yaratadi.

Institutda avtomatlashtirilgan energiya boshqaruvi tizimi joriy qilinib, barcha binolarda energiya sarfini kuzatib borish va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyati yaratildi. 2023-yilda to'liq energiya auditii o'tkazilib, asosiy energiya sarfi manbalari aniqlanib, ularga mos optimallashtirish choralarini belgilash orqali xarajatlar sezilarli darajada qisqartirildi.



Bu tadbirlar nafaqat institutning iqtisodiy foydasini oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lishda ham katta qadam hisoblanadi. Energiya tejash va qayta tiklanadigan manbalarni keng joriy qilish orqali Farg'onha Politexnika Instituti atrof-muhitni muhofaza qilishda yetakchi ta'lim muassasasi sifatida namuna ko'rsatmoqda.

Natijalar

Farg'onha Politexnika Institutida amalga oshirilgan energiya tejamkorlikka qaratilgan chora-tadbirlar natijasida bir qator sezilarli yutuqlarga erishildi. Ushbu yutuqlar iqtisodiy, ekologik va energiya samaradorligi nuqtai nazaridan quyidagilarda o'z aksini topdi:

- **Energiya sarfini qisqartirish:** Institut hududida LED texnologiyali yoritish tizimlarining keng qo'llanilishi va binolarning issiqlik izolyatsiyasi darajasining oshirilishi natijasida elektr energiyasi sarfi 2023-yilda 20% ga qisqardi. Isitish va sovitish tizimlarining zamonaviy energiya samarador qurilmalarga almashtirilishi esa qo'shimcha 25% energiya tejashni ta'minladi.
- **Ublerod chiqindilarini kamaytirish:** 2023-yilda institut hududida 822 kWt quvvatga ega quyosh panellarining o'rnatilishi va qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirish natijasida 450 tonnadan ortiq uglerod chiqindilari qisqartirildi.
- **Iqtisodiy tejamkorlik:** Energiyanı tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish natijasida institutning umumiy energiya xarajatlari sezilarli darajada kamaydi. Elektr energiyasi uchun xarajatlar o'tgan yilga nisbatan 15% ga qisqargan bo'lib, bu institut budgeti samaradorligini oshirdi.
- **Ekologik barqarorlikni ta'minlash:** Institut tomonidan amalga oshirilgan ekologik toza energiya manbalari qo'llanilishi, jumladan, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish orqali yoqilg'i resurslariga bo'lган talab kamaydi, bu esa tabiiy resurslarni muhofaza qilishga xizmat qildi.
- **Tashqi energiyaga bo'lган ehtiyojni qisqartirish:** Qayta tiklanadigan energiya manbalarining joriy qilinishi institutning umumiy energiya ehtiyojlarining 25% ni o'z hududida ishlab chiqarish imkoniyatini yaratdi.

• Innovatsion texnologiyalarni qo'llash: Institut olimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Climat Control” pardalari va quyosh energiyasidan foydalanishga mo'ljallangan sovitish tizimlari muvaffaqiyatli tatbiq etildi. Bu nafaqat energiya iste'molini kamaytirish, balki talabalarni o'qish uchun qulay ekologik muhit bilan ta'minlashga yordam berdi.

• Energiya monitoringi va boshqaruvi: Avtomatlashirilgan energiya boshqaruvi tizimining joriy qilinishi elektr energiyasi iste'molini real vaqt rejimida kuzatish imkonini berdi. Bu tizim institut rahbariyatiga tezkor va samarali qarorlar qabul qilishga ko'maklashdi.

Amalga oshirilgan bu tadbirlar Farg'ona Politexnika Institutining energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi salohiyatini yanada mustahkamladi. Kelgusida qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish va energiya tejaydigan texnologiyalarni yanada rivojlantirish bo'yicha ishlar davom ettiriladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatish bo'yicha muhim qadam hisoblanadi.

Xorijiy texnologiyalarni moslashtirish O'zbekistonda energiya samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Masalan, Germaniya tajribasidagi issiqlik izolyatsiyasi texnologiyalarini moslashtirish.

Xulosa

Ta'lim muassasalarida energiya tejash bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ushbu muassasalarni modernizatsiya qilishda muhim o'rinni tutadi. Mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda xorijiy tajribalarni qo'llash iqtisodiy samaradorlikni oshirish va atrof-muhitga zarar yetkazmaslikka imkon beradi.

Farg'ona Politexnika Institutida amalga oshirilgan energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish bo'yicha choratadbirlar nafaqat iqtisodiy tejamkorlikka, balki ekologik barqarorlikka ham muhim hissa qo'shdi. Institut tomonidan olib borilgan ishlar energiya tejash, uglerod chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish borasida sezilarli natijalarni taqdim etdi.

Quyosh panellari va shamol turbinalarining o'rnatilishi, binolarda LED texnologiyali yoritish tizimlariga o'tish, issiqlik izolyatsiyasini kuchaytirish va

zamonaviy energiya samarador qurilmalarni tatbiq etish orqali energiya sarfini kamaytirish va uglerod chiqindilarini sezilarli darajada qisqartirishga erishildi. Natijada elektr energiyasi uchun xarajatlar kamayib, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi oshdi. Energiya boshqaruvini avtomatlashtirish tizimining joriy qilinishi resurslardan samarali foydalanish va energiya monitoringini yaxshilashga imkon berdi. Institutning bu boradagi strategik yondashuvi nafaqat iqtisodiy foyda, balki atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha milliy va xalqaro darajadagi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi. Ushbu natijalar Farg'ona Politexnika Institutining energiya tejash va ekologik barqarorlikni ta'minlash bo'yicha yetakchi o'rinnegallashini ta'minlaydi va boshqa ta'lim muassasalari uchun namuna bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushini oshirish, yangi energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish va uglerod chiqindilarini yanada qisqartirish bo'yicha ishlarni davom ettirish rejalashtirilmoqda. Ushbu yondashuvlar barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyatni oshirish yo'lida muhim qadam bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalqaro Energetika Agentligi (IEA). "Global Energy Review 2023." <https://www.iea.org/reports/global-energy-review-2023>.
2. German Ministry of Education: Energy Efficiency in Schools (2021).
3. Energy-saving technologies in Japan (2020).
4. Mahalliy energiya tejash bo'yicha davlat hisobotlari (2020-2023).
5. Toshkent shahridagi maktablarda energiya samaradorligi tadqiqoti (2022).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, PQ-1234-son (2022).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-avgustdagagi "Energiyanı tejash va qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish choraları to‘g‘risida”gi yig‘ilishi materiallari. <https://president.uz/oz/lists/view/7501>.



Research Science and
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN
UZBEKISTAN” JURNALI**

VOLUME 2, ISSUE 11, 2024. NOVEMBER

ResearchBib Impact Factor: 9.654/2024

ISSN 2992-8869



Research Science and
Innovation House

8. Usmonov D.A., Karimov I.K. "Energiyani tejash texnologiyalarining ta'lif muassasalarida qo'llanilishi." Farg'ona Politexnika Instituti ilmiy texnika jurnali to'plami, 2023.
9. Ismoilov I.K., Uzbekov M.O. "Quyosh energiyasidan foydalanish orqali energiya samaradorligini oshirish texnologiyalari." Farg'ona Politexnika Instituti ilmiy habarnomasi, 2023.
10. Germaniya Barqaror Qurilish Agentligi (DGNB). "Eco-Friendly Construction Practices in Educational Institutions." <https://www.dgnb.de/en>.
11. Skandinaviya Barqaror Energetika Tadqiqotlari Markazi. "Renewable Energy in Public Buildings." <https://www.nordicenergy.org>.
12. Farg'ona Politexnika Instituti rasmiy sayti. "Qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar." <https://ungoals.ferpi.uz/info/119>.



Research Science and Innovation House

